



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **10 591** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **810** taga kamaygan yoki **7,1 %** ga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **16,2** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2024- yilning yanvar-martda **520** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **21,6 %** kamaygan.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda davogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2020-2024- yillar yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), birlikda



2024- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

2023- y.		2024- y.
1093	Oqoltin	730
1 540	Boyovut	935
1 243	Sayxunobod	804
1 367	Guliston	826
1416	Sardoba	866
1 289	Mirzaobod	939
1942	Sirdaryo	1 351
1371	Xovos	605
2496	Guliston sh.	2 492
264	Shirin sh.	264
791	Yangiyer sh.	779

2024- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **10 591** tani, shundan, yangi tashkil etilganlari **520** tani tashkil etdi.

2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Guliston shahrida **2 492** tani yoki jamiga nisbatan **23,0 %** ni tashkil etdi.

1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda





Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Guliston sh.	25,0
Shirin sh.	13,6
Yangiyer sh.	16,4
Oqoltin	19,6
Boyovut	11,1
Sayxunobod	15,0
Guliston	17,1
Sardoba	20,1
Mirzaobod	16,0
Sirdaryo	14,1
Xovos	13,4

Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- aprel holatiga, birlikda



2024- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **16,2** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan **5,4** birlikka ko'paygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida **25,0** birlik, Sardoba tumanida **20,1** birlik, Oqoltin tumanida **19,6** birlik, Guliston tumanida **17,1** birlik va Yangiyer shaharda **16,4** birlikka yetdi.


* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Guliston shahri
– 25,0 birlik.




O'rta ko'rsatkich

Mirzaobod tumani
– 16,0 birlik.



Eng past ko'rsatkich

Boyovut tumani
– 11,1 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida **25,0** birlik, Sardoba tumanida **20,1** birlik, Oqoltin tumanida **19,6** birlik, Guliston tumanida **17,1** birlik, Yangiyer shahrida **16,4** Mirzaobod tumanida **16,0** birlik, Sayxunobod tumanida **15,0** birlik, Sirdaryo tumanida **14,1** va Shirin shahrida **13,6** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1- aprel holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Guliston shahri

25,0

Oqoltin tumani

19,6

Yangiyer shahri

16,4

Sardoba tumani

20,1

Guliston tumani


17,1

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2023- y.		2024- y.
121	Guliston sh.	114
99	Oqoltin	86
33	Guliston	48
71	Sirdaryo	47
51	Mirzaobod	43
34	Xovos	40
35	Boyovut	39
115	Sardoba	38
24	Yangiyer sh.	30
71	Sayxunobod	30
9	Shirin sh.	5

2024- yilning yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Guliston shahri – **21,9** %, Oqoltin – **16,5** %, Guliston – **9,2** %, Sirdaryo – **9,0** % va Mirzaobod – **8,3** % ga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023-2024- yillarning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 176 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 132 ta hamda sanoatda 85 ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Guliston shahrida 114 ta, Oqoltin tumanida 86 ta hamda Guliston tumanida 48 ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-mart oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar ulishi % da



So'nggi yillarda Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2024- yillarning yanvar-mart oylari davomida jami **3 651** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **1 586** (yoki **36,4** %) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **980** (yoki **22,5** %) ta, sanoat sohasida – **746** (yoki **17,1** %) ta, Qurilish sohasida – **296** (yoki **6,8** %) ta va Xizmatlarda – **749** (yoki **17,2** %) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Investitsiya



Qurilish



Chakana savdo




Xizmatlar



Yuk tashish



Yuk aylanmasi



Yo'lovchi tashish



Yo'lovchi aylanmasi




Eksport



Import

■ 2023- y. ■ 2024- y.




■ 2023- y. ■ 2024- y.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi (yanvar-mart oylarida), % da

2024- yilning yanvar-martida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **52,3** % ni tashkil qilib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **1,7** punktga kamaygan.




2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **98,3** % ni, yo'lovchi aylanmasida **97,3** % ni, yo'lovchi tashishda **95,2** % ni, chakana savdoda **94,4** % ni, yuk tashish **91,0** % ni va yuk aylanmasida **84,9** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1 312,6** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo (**347,9** mlrd. so'm), Boyovut (**288,0** mlrd. so'm), Yangiyer shahri (**150,8** mlrd. so'm), Guliston shahri (**137,3** mlrd. so'm) va Shirin shahri (**86,2** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi. Guliston tumanlarida (**30,2** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, mlrd. so‘m

2024- yil yanvar-martda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 27,4 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Sirdaryo (26,5 %), Boyovut (21,9 %), Yangiyer shahri (11,5 %), Guliston shahri (10,5 %), Shirin shahri (6,6 %), Xovos (5,8 %), Sayxunobod (5,6 %) va Mirzaobod (3,2 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Guliston sh.	195,5	97,7
Shirin sh.	13,7	48,3
Yangiyer sh.	39,6	100,0
Oqoltin	14,3	88,7
Boyovut	21,6	94,0
Sayxunobod	32,4	95,4
Guliston	39,1	96,0
Sardoba	11,2	32,7
Mirzaobod	140,5	76,6
Sirdaryo	54,8	83,1
Xovos	27,8	88,0

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2024- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **590,5** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **84,7** % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish surati **109,0** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Guliston shahrida (**195,5** mlrd. so'm), Mirzaobod (**140,5** mlrd. so'm), Sirdaryo (**54,8** mlrd. so'm), Yangiyer shaharda (**39,6** mlrd. so'm), Guliston (**39,1** mlrd. so'm), Oqoltin (**14,3** mlrd. so'm) hamda Sardoba tumanlarida (**11,2** mlrd. so'm) qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **1 544,6** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **56,3 %** ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **37,4 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Shirin shahar (**473,8** mlrd. so'm), Boyovut tumani (**282,2** mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (**221,6** mlrd. so'm), Yangiyer shahari (**211,4** mlrd. so'm), Guliston shahari (**115,6** mlrd. so'm), Sayhunobod tumani (**87,1** mlrd. so'm), hamda Mirzaobod tumanlarida (**68,4** mlrd. so'm) qayd etildi.

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi mlrd. so'm, ulushi % da




2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **1 447,1** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **98,3** % ni tashkil etdi. O‘shir sur‘ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **104,3** % ni tashkil qildi.



2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Boyovut (**236,9** mlrd. so‘m), Sayxunobod (**201,4** mlrd. so‘m), Sirdaryo (**173,2** mlrd. so‘m), Oqoltin (**138,5** mlrd. so‘m), Xovos (**135,9** mlrd. so‘m) hamda Guliston (**173,3** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Sayxunobod	201,4	99,3
Boyovut	236,9	99,5
Sirdaryo	173,2	96,4
Oqoltin	138,5	99,6
Xovos	135,9	99,3
Guliston	173,3	99,5
Sardoba	181,7	99,4
Mirzaobod	141,4	93,6
Guliston sh.	49,7	95,4
Yangiyer sh.	8,0	99,0
Shirin sh.	7,3	99,3


hajmi, mlrd. so‘mda 
ulushi, % da 

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **1 092,2** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **94,4 %** ni tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **108,5 %** ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va ulushi

Guliston sh.	372,0	88,5
Sirdaryo	215,4	98,4
Yangiyer sh.	95,5	94,2
Mirzaobod	83,9	98,4
Boyovut	75,8	98,2
Guliston	55,9	98,6
Sardoba	39,1	97,0
Oqoltin	59,8	99,0
Sayxunobod	42,1	97,9
Xovos	37,8	99,3
Shirin sh.	15,0	100,0

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Guliston shahri (**372,0** mlrd. so'm), Yangiyer shahri (**95,5** mlrd. so'm), Sirdaryo (**215,4** mlrd. so'm), Mirzaobod (**83,9** mlrd. so'm), Boyovut (**75,8** mlrd. so'm), va Guliston tumanlari (**55,9** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

2019 va 2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, mlrd. so'm




hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda



2024- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **861,9** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **51,4 %** ni tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **114,3 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Guliston shahri (**245,9** mlrd. so'm), Yangiyer shahri (**96,2** mlrd. so'm), Sirdaryo (**158,8** mlrd. so'm), Mirzaobod (**66,6** mlrd. so'm), Xovos (**55,9** mlrd. so'm), Boyovut (**54,4** mlrd. so'm) va Guliston tumanlari (**48,2** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi turlari (yanvar-mart oylarida)

379,2	Savdo xizmatlari	44,0
46,6	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	5,4
227,9	Transport xizmatlar	26,5
25,9	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	3,0
26,1	Boshqa xizmatlar	3,0
32,5	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,8
11,2	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1,3
21,8	Ijara xizmatlari	2,5
6,0	Moliyaviy xizmatlar	0,7
9,8	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1,1
4,2	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	0,5
37,8	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	4,4
32,9	Boshqa shaxsiy xizmatlar	3,9

Hajmi, mlrd. so'mda


Ulushi, foizda

Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida –**44,0** % (**379,2** mlrd. so'm), transport xizmatlarida – **26,5** % (**227,9** mlrd. so'm), yashash va ovqatlanish xizmatlar – **5,4** % (**46,6** mlrd. so'm) hamda kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar **4,4** % (**37,8** mlrd. so'm)ni tashkil etdi. Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi aloqa va axborotlashtirish xizmatlar **0,5** % (**4,2** mlrd. so'm) kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-mart oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Yangiyer sh.	16 615,3	95,4
Sirdaryo	4 904,4	31,2
Sayxunobod	3 397,6	60,4
Boyovut	7 241,4	70,4
Xovos	1 384,6	99,9
Mirzaobod	484,5	27,9
Oqoltin	190,9	99,9
Sardoba	1 314,9	94,8
Guliston sh.	2 993,9	39,0
Shirin sh.	240,2	100,0
Guliston	31,9	1,2


hajmi, ming. AQSH dollar 
ulushi, % da 

2024- yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **39,0** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **60,4** % ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Shirin shahrida – **100,0** %, Oqoltin tumanida – **99,9** %, Yangiyer shahrida – **95,4** %, Sardoba tumanida – **94,8** %, Xovos tumanida – **99,9** %, Sayxunobod tumanida – **60,4** %, Boyovut tumanida – **70,4** % va Sirdaryo tumanida – **31,2** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Guliston tumanida – **1,2** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2024- yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **73,0** million AQSH dollarini yoki jami importning **82,7** % ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Yangiyer shahrida – **100** %, Oqoltin tumanida – **100** %, Shirin shahrida – **100** %, Guliston tumanida – **99,6** %, Boyovut tumanida – **97,9** %, hamda Sayxunobod tumanida – **85,4** % ni tashkil etdi.


Yangiyer sh.	100,0
Shirin sh.	100,0
Oqoltin	100,0
Guliston	99,6
Boyovut	97,9
Sayxunobod	85,4
Sirdaryo	76,4
Guliston sh.	73,8
Mirzaobod	70,7
Sardoba	62,8
Xovos	35,7

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




**Yuk
tashishda**

2024- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **91,0 %** ni tashkil etdi. 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **98,5 %** ni tashkil qildi.




**Yuk
aylanmasida**

2024- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **84,9 %** ni tashkil etgan bo‘lib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **99,4 %** ni tashkil qildi.



**Yo‘lovchi
tashishda**

2024- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,2 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **99,8 %** ni tashkil qildi.




**Yo‘lovchi
aylanmasida**

2024- yilning yanvar-martida, avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,3 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o‘shish sur‘ati **99,6 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil I- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2024- yil I- chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 604 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 165 (27,3 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 367 (60,8 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 72 (11,9 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 42,7 % (258 ta), xizmatlar sohasida – 22,5 % (136 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 13,6 % (82 ta), sanoatda – 13,1 % (79 ta), qurilishda – 8,1 % (49 ta) ni tashkil etdi.

2024- yil I- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil I- chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

159	Guliston sh.	26,3
17	Shirin sh.	2,8
50	Yangiyer sh.	8,3
46	Oqoltin	7,6
42	Boyovut	7,0
48	Sayxunobod	7,9
37	Guliston	6,1
54	Sardoba	8,9
37	Mirzaobod	6,1
75	Sirdaryo	12,4
39	Xovos	6,6


Soni, birlikda

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Guliston shahri (**159** ta), Sirdaryo (**75** ta), Yangiyer shahri (**50** ta) va Sayxunobod (**48** ta), tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning I- choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning I- choragida **240** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning I- choragiga kelib esa **165** ta yoki 2019- yilning I- choragiga nisbatan **75** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilda **179** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-martida **367** ta yoki **188** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilda **20** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib **72** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan **52** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning I- choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning I- choragida **282** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning I- choragiga kelib esa **212** ta yoki 2019- yilga nisbatan **70** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning I- choragida **86** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning I- choragida **301** taga yetgan yoki **215** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar soni esa 2019- yilning I- choragida **16** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning I- choragiga kelib, bu ko'rsatkich **43** tani tashkil etib, **27** taga ko'paygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning I- choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning I- choragida **54,7 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa **27,3 %** ga yoki 2019- yilga nisbatan **27,4 %** birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilda **40,8 %** bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning I- choragida **60,8 %** yoki **20,0 %** birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019- yilda **4,5 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib, bu ko'rsatkich **11,9 %** ga yetgan yoki **7,4 %** ga ko'paygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillar I- choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning I- choragida **73,4 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa **38,1 %** ga yoki 2019- yilning I- choragiga nisbatan **35,3 %** birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning I- choragida **22,4 %** bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-martida **54,1 %** yoki **31,7 %** birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019- yilning I- choragida **4,2 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning I- choragiga kelib, bu ko'rsatkich **7,8 %** yoki **3,6 %** birlikka ko'paygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning I- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2024- yilning I- choragida oʻtkazilgan kuzatuv natijalariga koʻra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng koʻp ulushi savdoda – **50,9 %** ni, xizmatlar sohasida – **21,2 %** ni, sanoatda – **13,9 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng koʻp ulushi savdoda – **40,9 %** ni, xizmatlar sohasida – **24,0 %** ni, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida – **16,6 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng koʻp ulushi savdoda – **33,2 %** ni, xizmatlar sohasida – **18,1 %** ni, sanoatda – **16,7 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning I- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2024- yilning I- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **50,2** % ni, xizmatlar sohasida – **16,3** % ni va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **13,3** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdoda – **35,6** % ni, xizmatlar sohasida – **28,4** % ni va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **14,4** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdoda – **36,8** % ni, xizmatlar sohasida – **26,3** % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning I- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	43,4	47,3	9,3
Band bo'lganlar soni	12,8	80,4	6,8
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	40,4	52,1	7,5
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	41,0	51,7	7,3
Raqobat muhiti	46,8	47,3	5,9

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	46,4	50,0	3,6
Band bo'lganlar soni	21,5	74,8	3,7
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	41,2	55,5	3,3
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	42,4	54,1	3,5
Raqobat muhiti	44,4	52,5	3,1


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning I- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2024- yilning I- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli